

Esanova Saodat Mengto'rayevna

TerDU Lingvistika: O'zbek tili

2-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvistik lug'atlar va diniy-leksik birliklar tahlili, O'zbek tili izohli lug'ati va boshqa lingvistik lug'atlar, diniy matnlar va birliklar tadqiqi, so'z ma'nosi bilan tushuncha o'rtasidagi bog'liqlikni oydinlashtirish, diniy frazeologik birliklarning O'zbek va jahon tilshunosligida o'r ganilishi, so'zlarning turli xil ma'no turlarini ajratish, leksik-semantik tizimning xususiyatlari, va ularning munosabatlarini tahlil qilish, so'zning semantik tuzilishi, o'ziga xos semantik xususiyatlar va boshqalar to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: lug'at, birlik, til, jamiyat, davr, tuzum, din, tizim, fan, leksika, tadqiqotlar, diniy iboralar, so'zlar, stilistika.

Til jamiyat uchun xizmat qilar ekan, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar tilda o'z aksini topmay qolmaydi, albatta. Ya'ni, davr o'tishi, tuzum o'zgarishi, taraqqiyot, voqeа-hodisalar, jamiyat a'zolari ongingin rivojlanishi va boshqa turli xil omillar tilga ham o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Ayniqsa, bu tildagi leksik qatlamda, lug'at tarkibida yaqqol namoyon bo'ladi. Davr o'tishi bilan lug'at tarkibi ham yangilanib borishni talab etadi. Bunga birgina misol qilib, "O'zbek tili izohli lug'ati"(O'TIL)ni keltirib o'tishimiz mumkin. Uch davrda -1981, 2006, 2020-yillarda yaratilgan O'TIL nafaqat hajm va tarkib jihatdan, balki, so'zlarning semantik munosabati jihatidan ham farqlanadi. Masalan, 1981-yilgi 2 jildli O'TILda birgina "ma'rifat" so'zi 2 xil ma'noda, yangi izohli lug'atlarda esa uch xil ma'noda berilgan. Ya'ni, bu so'zning "tasavvufda har bir so'fiy ruhiy kamolotga erishish yo'lida bosib o'tadigan bosqich" izohi kiritilgan. Bu semema o'sha davr mafkurasiga zid bo'lganligi sababli 2 jildli izohli lug'atda o'z aksini topmagan.

Mustaqillikdan so'ng milliy o'zligimiz, ma'rifiy-manaviy hayotimiz tiklanib, lisonimizda o'z e'tiqodimizga, an'ana va urf- odatlarimizga oid tushunchalarimizni bemalol qo'llay olyapmiz. Bir zamon cheklangan, unutilishga mahkum qilingan diniy-ma'rifiy leksikamiz qaytadan lug'atimizga, tilimizga, hayotimizga olib kirilmoqda.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda diniy-leksik birliklar, teonimlar, diniy matnlar tadqiqi, o'zbek tili stilistikasiga oid izlanishlar olib borib zamonaviy tilshunosligimizga o'z hissalarini qo'shayotgan tilshunoslарimizdan S. Karimov. B. Umurqulov, Sh. Maxmaraimova, Sh. Omonturdiyeva, N.Omonturdiyev va boshqa olimlarimizning ishlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Jumladan, professor S. Karimovning "O'zbek tilining funksional stilistikasi" asari, J. Omonturdiyev, A. Omonturdiyevlarning "Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati", Sh. Maxmaraimovaning "O'zbek tili teomorfik metaforalarning qisqacha konseptual lug'ati", Sh. Omonturdiyevaning "O'zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi" nomli

dessertatsiyasini keltirib o'tishimiz mumkin. Xususan, ushbu dessertatsiyada diniy matnlarda, izohli lug'atlarda berilgan diniy-leksik birliklar haqida keng to'xtalib o'tilgan: "Bu lug'aviy birliklarning leksik-semantik tahlilini berishda "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni tayanch manba qilib olindi. Chunki xalqimiz o'rtasida bir qadar ommalashgan, ko'pchilikka tanish bo'lgan, ma'nolarida muayyan siljishlar yuz bergan leksemalar kiritilgan shu manba aynan diniy matnlar leksikasiga oid kuzatishlar olib borishda eng ishonchli manba sanaladi. Unda maxsus din. stilistik belgisi bilan berilgan so'zlar soni 256 tani tashkil etadi. Jumladan, 1-jildda -45 ta, 2-jildda- 61 ta, 3- jildda 77 ta, 4-jildda- 43 ta, 5-jildda- 30 ta. Bu birliklar Izohli lug'atdagi umumiyoq so'zlar sonining 0,0032 foizini tashkil etadi" degan faktlar keltirib o'tilgan.

Diniy-leksik birliklarni ham xuddi boshqa til birliklari kabi turli xususiyatlarga ko'ra tasniflashimiz mumkin. Misol uchun, nimaning nomini bildirishiga ko'ra, atoqli, joy nomlari, marosim, turli amallar va boshqa narsalarni atab kelishiga binoan guruhash mumkin. Yoki boshqa jihatdan diniy atamalar, diniy iboralar kabi guruhlarga ajratib o'rganish mumkin.

Diniy frazeologik birliklarning muhim tarkibiy qismi sifatida. Jahon tilshunosligida din va frazeologiyaning o'zaro bog'liqligini o'rganishga bag'ishlangan asarlar qisqacha tahlil qilingan, xususan, o'zbek tilshunosligining bu boradagi tadqiqotlari, o'zbek va rus tillaridagi diniy lug'at mavzu jihatdan diniy frazeologiyaning tarkibiy qismi sifatida tasniflangan birliklar. Shuningdek, maqola lug'atning ushbu qatlamini ijtimoiy cheklangandan keng tarqalgan, foydalanishga o'tish va ularni qo'llash doirasini kengaytirish bilan bog'liq.

Diniy frazeologik birliklarning lug'atlarda aks etishi masalasiga kelsak, O'zbekistonda maxsus diniy frazeologik lug'at hali yaratilmagan. Mazkur o'zbek tilining frazeologik lug'atlarida joylashtirish diniy tildagi mavzuni to'liq qamrab olmaganini ko'rish mumkin. Vaholanki, diniy frazeologik birliklar tilning faol qatlamidan o'rin olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir inson uyqudan turgandan to kunni tamomlab, uyquga yotgunga qadar Xudo (Allah) nomi ishtirok etgan duo qilishdagi iboralarni zikr qilib yuradi. Demak, aytish mumkinki, o'zbek tilidagi diniy frazeologik birliklarning tadqiqi masalasini kutayotgan muammolardan biridir.

O'TILda diniy aqidalarga ko'ra deya izohlangan ba'zi leksik birliklar olma Sh. Maxmaraimovaning yuqorida tilga olingan "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da 24 ta teonim sifatida izohlangan. Bularidan: A'rof, Jabroil, Behisht, Azroil, Duldul, Xizr, Dajjal, Azozil va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. Biz esa diniy ilm tarkibiga asosiy komponent bo'lib keluvchi diniy markerlangan so'zlar - diniy leksika xususida so'z yuritar ekanmiz, diniy komponentli birliklar tadqiqi esa kelgusidagi ishlarimizda ko'zda tutilgan. Qizig'i shundaki, tarkibida diniy leksika mavjud frazeologik birliklar ko'plab tillarda, xususan, ba'zi turkiy tillarda atroficha o'rganilganligi, ayniqsa, undan o'sha til egalari emas, boshqa tilda so'zlovchi qo'shiqchi va olimlar muhokamaga tortilgan.

Vaholanki, ma'lum tilni tug'ilgandan uning nozik qirralarigacha jo bo'lgan til egalariga o'rnatilgan insoniy hodislar asl tasavvurlarda namoyon bo'lishi bilan qadrlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Maxmaraimova Sh. O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati. Toshkent. 2018.
2. O'zbek tili leksikologiyasi, T., 1981;
3. Axmanova O. S, Slovar lingvisticheskix terminov, M., 1969;
4. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar, M., 1990.
5. Sh.Omonturdiyevaning "O'zbek diniy matninig funktsional-stilistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasi.